

TALABALARNI KASBIY TAYYORGARLIK SIFATINI OSHIRISHDA SUN'IIY INTELLEKT IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH

Kadirova Omadxon Sobirjonovna

Andijon davlat pedagogika instituti Pedagogika va

psixologiya kafedrasi assistant o'qituvchisi

Xasanova Madinabonu Soyibjon qizi

Andijon Davlat Pedagogika Instituti Maktabgacha

ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqola sun'iy intellekt texnologiyalarining talabalarning kasbiy tayyorgarlik sifatini oshirishdagi o'rnini tahlil qiladi. Sun'iy intellekt yordamida indevidual yondashuv, interaktiv o'quv muhitlari va avtomatlashtirilgan nazorat tizimlari orqali o'qitish samaradorligini oshirish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, kasbiy tayyorgarlik, talabalar, ta'lim sifati, raqamli texnologiyalar.

Аннотация: В статье анализируется роль технологий искусственного интеллекта в повышении качества профессиональной подготовки студентов. Рассматриваются возможности повышения эффективности обучения за счет индивидуального подхода, интерактивных обучающих сред и автоматизированных систем управления с использованием искусственного интеллекта.

Ключевые слова: искусственный интеллект, профессиональное обучение, студенты, качество образования, цифровые технологии.

Abstarct: This article analyzes the role of artificial intelligence technologies in improving the quality of students' professional training. The possibilities of increasing the

efficiency of teaching through an individual approach, interactive learning environments, and automated control systems using artificial intelligence are considered.

Key words: artificial intelligence, vocational training, students, quality of education, digital technologies.

Zamonaviy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalar, xususan, sun'iy intellektlar imkoniyatlaridan foydalanish talabalarning kasbiy tayyorgarlik sifatini oshirishda muhim omilga aylanmoqda. Ta'lim jarayonida sun'iy intellektdan samarali foydalanish orqali individual yondashuv, o'quv jarayonini optimallashtirish hamda nazorat tizimlarini takomillashtirish imkoniyati yaratiladi. Ushbu maqolada sun'iy intellekt texnologiyalarning ta'limdagi roli, uning avzalliklari va talabalarning kasbiy tayyorgarlik darajasiga ko'rsatadigan ta'siri tahlil qilinadi.

“Birinchi navbatda sun'iy intellekt o'zi nima?” - degan savolga javob olsak. Sun'iy intellekt – bu kompyuter tizimlari va dasturlashning inson aql-idroki talab qilinadigan vazifalarni bajarishga qodir bo'lishini ta'minlaydigan texnologiyalar majmuasidir. Bunday vazifalarga fikrlash, muammolarni hal qilish, mantiqiy xulosa chiqarish, o'rganish, tilni tushunish va qaror qabul qilish kiradi. Sun'iy intellekt tizimlari katta hajmdagi ma'lumotlar asosida mustaqil o'rganishi, o'z tajribasidan xulosa chiqarishi va yangi holatlarga moslashishi mumkin. Ilmiy nuqtai nazardan, sun'iy intellekt dastlab 1956-yilda Dartmut konferensiyasida mustaqil fan sifatida shakllangan bo'lib, u zamonaviy informatika, matematika, lingvistika, falsafa, nevrologiya va psixologiya kabi fanlar bilan uzviy bog'liqdir. Sun'iy intellekt bir necha turga bo'linadi: tor sun'iy intellekt (aniq vazifalarni bajaradi), umumiy sun'iy intellekt (inson miya darajasidagi aqlga ega) va superintellekt (inson aqlidan ustun bo'lgan daraja).

Endi sun'iy intellektlarning kasbiy tayyorgarlikda amaliy qo'llanilishi va sifatni oshirishdagi o'rniga to'xtalsak. Zamonaviy ta'lim tizimida sun'iy intellekt (SI) kasbiy tayyorgarlik jarayoni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqmoqda. SI yordamida ta'lim olish jarayoni oldin ilgari qo'llanilgan an'anaviy metodikalardan farqli ravishda individual, adabtiy va raqamli muhitga mos shaklda tashkil qilinmoqda. Bu esa o'quvchilar va

talabalarni nafaqat nazariy bilimlar bilan, balki amaliy ko'nikmalar, tahliliy fikrlash va real hayotdagi muammolarni hal etish kompetensiyalari bilan ham qurollantirish imkoniyatini bermoqda [1]. Ayniqsa, kasb-hunar egallashda va sohaga ixtisoslashgan mutaxassislarni tayyorlashda SI texnologiyalarining qo'llanilishi o'rganuvchining mustaqil fikrlashi, axborotni saralab olish ko'nikmasi, hamda zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash salohiyatini sezilarli darajada oshiradi. Bularning barchasi talabalarni mehnat bozoriga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Birinchidan, sun'iy intellekt yordamida talabalarining bilim darajasi, qiziqishlari va o'zlashtirish tezligiga moslashtirilgan individual o'quv yo'nalishlarini shakllantirish imkoniyati mavjud [1]. An'anaviy ta'lim tizimida barcha o'quvchilarga bir xil mazmunda dars o'tilsa, sun'iy intellekt texnologiyalari esa har bir talabaning o'ziga xos o'quv ehtiyojlarini tahlil qilib, ularga mos o'quv materiallari va mashg'ulotlar to'lamini shakllantiradi. Bu o'z navbatida ta'lim samaradorligini oshiradi va bilim olish jarayonini yanada samarali va osonlashtirilgan shaklga keltiradi. Masalan, Coursera, Udemy, FutureLearn kabi zamonaviy ta'lim platformalari sun'iy intellekt asosida foydalanuvchilarning avvalgi faolligi, natijalari va o'rganish tarixini tahlil qilib, eng mos va samarali kurslar yoki mashg'ulotlarni avtomatik tarzda tavsiya qiladi. [1] Ikkinchidan, sun'iy intellekt (SI) texnologiyalari kasbiy tayyorgarlikda amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. SI asosida yaratilgan virtual simulyatorlar va interaktiv platformalar talabalarga real ish muhitini xavfsiz va nazorat ostida sinab ko'rish imkonini beradi. Masalan, avtomobil ta'miri bo'yicha o'quv dasturlarida SI yordamida yaratilgan simulyatsiyalar orqali talabalar murakkab diagnostika va ta'mirlash jarayonlari amaliyotda mashq qilishlari mumkin. Bu usul an'anaviy ta'limga nisbatan arzonroq va ko'proq talaba bir vaqtning o'zida mashg'ulotlarda ishtirok etishi mumkin [2]. Shuningdek, SI texnologiyalari o'quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashtirilgan o'quv yo'nalishlarini taklif etadi. SI asosida ishlovchi platformalar o'quvchilarning bilim darajasi va o'zlashtirish tezligini tahlil qilib, ularga eng mos o'quv materiallarini taqdim etadi [3]. Uchinchidan, sun'iy intellekt (SI) kasbiy tayyorgarlik jarayonida o'z-o'zini rivojlantirish, rezyume tuzish, suxbatga tayyorgarlik ko'rish, hamda kasbiy kompetensiyalarni aniqlash kabi bosqichlarda ham faol yordam beradi. Talabalar va ish qidirayotganlar uchun sun'iy intellekt yordamida

taqdim etiladigan platformalar, ularning kasbiy o'sishlarini qo'llab quvvatlaydi. Masalan, LinkedIn Learning platformasida Microsoft bilan hamkorlikda yaratilgan "Career Essentials in Generative AI" kursi orqali talabalar sun'iy intellekt asosida yangi kasbiy bilimlarni egallashadi. Bu kursda talabalar generative SI texnologiyalari, uning amaliyotda qo'llanilishi, etik jihatlar va zamonaviy biznes sohalaridagi o'rni haqida to'liq ma'lumot olishadi. Kursni tamomlagan talabalar LinkedIn profiliga sertifikatni qo'shish imkoniyatiga ega bo'lishadi, bu esa ularning professional imidjini yanada mustahkamlashga yordam beradi [4]. Shuningdek, O'zbekiston ta'lim tizimida ham sun'iy intellekt texnologiyalaridan kasbiy tayyorgarlik jarayonida foydalanish kengaymoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ta'lim va innovatsiyalar sohasida ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish, xususan, sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalarni o'quv jarayoniga integratsiyalash bo'yicha ko'plab tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Masalan, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan tashkil etilgan maxsus kurslar, seminarlarda talabalar va o'qituvchilarga sun'iy intellektning kasbiy rivojlanishdagi o'rni haqida ma'lumotlar beriladi. Bu dasturlar orqali talabalarga sun'iy intellektning o'z kasbiy faoliyatlariga qanday moslashtirish va undan samarali foydalanish mumkinligini o'rgatadi. Bunday kurslar va treninglar orqali o'quvchilar va talabalar o'z kasbiy kompetensiyalarini aniqroq va to'g'ri shakllantirish imkoniga ega bo'lishadi [5]

Xulosa qilib aytganda, sun'iy intellekt texnologiyalari bugungi kunda talabalarni kasbiy tayyorgarlikka puxta tayyorlashda muhim vositaga aylanmoqda. Mazkur texnologiyalar ta'lim jarayonini nafaqat samarali, balki interaktiv, moslashtirilgan va raqamli dunyo talabalariga mos holatga keltiradi. Jumladan, sun'iy intellekt asosidagi adaptive o'quv tizimlari orqali talabalar o'z bilimi va ehtiyojlariga qarab individual yo'nalishlarda o'qish imkoniyatlariga ega bo'ladilar. Bu esa ularning o'quv motivatsiyasi va natijalarini sezilarli darajada oshiradi. Shuningdek, virtual laboratoriyalar orqali amaliy ko'nikmalar xavfsiz va arzon shaklda shakllantirish imkoniyati mavjud bo'lib, bu an'anaviy ta'lim shakliga nisbatan yuksak afzallikka ega. Kasbiy tayyorgarlik jarayonida rezyume tuzish, suxbatga tayyorgarlik ko'rish, kompetensiyalarni aniqlash kabi bosqichlarda sun'iy intellekt vositalari orqali talabalar o'z imkoniyatlarini to'liq namoyon qila oladilar.

Yuqoridagilar asosida aytish mumkinki, sun'iy intellekt vositalaridan oqilona foydalanish orqali nafaqat ta'lim sifati, balki bozor talablariga mos keluvchi, raqobatbardosh, zamonaviy kasb egalari yetishtiriladi. Kelajakda ushbu texnologiyalarni ta'lim tizimiga chuqurroq integratsiyalash orqali kasbiy tayyorgarlik jarayonini yanada mukammallashtirish mumkin bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1)Ta'lim tizimidagi sun'iy intellektdan foydalanish.Tadqiqotlar.uz, 2023-yil.
- 2)Whar are the Benefits of AI in Vocational Learning, Learningku.com.
- 3)AI in Vocational Education and Training: Technologies and Applications, IGI Global.
- 4)LinkedIn Learning. (2023). "Career Essentials in Generative AI" Microsoft bilan hamkorlikda.
- 5)O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. (2023). Sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalarni ta'limda qo'llash.